

FAOLIYATIDA AXBOROTDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDAGI  
AYRIM NAZARIY TUSHUNCHALAR

**Ravshan Irkinovich Sultanxodjaev**

*IIV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakultetining mustaqil  
izlanuvchisi*

*Annotatsiya: Maqolada ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining tezkor qidiruv faoliyatida axborotning tushunchalari, uni to'plash va undan foydalanish bo'yicha olimlarning ilmiy fikrlari yoritilgan.*

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ ОБ  
ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИНФОРМАЦИИ В ОПЕРАТИВНО-  
РОЗЫСКНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

*Аннотация: В статье освещены понятия информации в оперативно-розыскной деятельности оперативных подразделений органов внутренних дел, научные взгляды ученых по ее сбору и использованию.*

*Ключевые слова: органы внутренних дел, оперативные подразделения, оперативно-розыскная деятельность, информация, использовании информации, право, обязанность, закон.*

SOME THEORETICAL CONCEPTS ABOUT THE USE OF  
INFORMATION IN THE OPERATIONAL AND RESEARCH  
ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

*Abstract: The article describes the concepts of information in the operational-search activities of the internal affairs bodies, the scientific views of scientists on its collection and use.*

*Keywords: internal affairs bodies, operational units, operational-search activities, information, use of information, right, obligation, law.*

Dunyoda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashishda qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda fuqarolar ko'magidan foydalanishni yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or ish usullarini keng joriy etish orqali tadbirlarni o'tkazishda elektron ma'lumotlardan foydalanish tizimini joriy etish va natijalarini rasmiylashtirishga doir qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish hamda mazkur faoliyatni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlarida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish zarurligini belgilab bergan [1].

Insonning asosiy huquq, erkinliklari tizimida yashash huquqi nafaqat mazkur huquqning uning tug'ilganidan boshlab tegishli hamda ajralmas ekanligi, balki Konstitutsiyada berilgan va kafolatlangan, qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar tomonidan himoya qilinadigan barcha huquq, erkinliklariga ega bo'lishining dastlabki sharti, garovi hisoblanadi [2].

Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish [3] bugungi kunda eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda har bir insonning axborot olishi, to'plashi va tarqatishi qonunan kafolatlangan. Ammo olinayotgan va tarqatilayotgan har qanday axborot ishonchli, xavfsiz va xolis bo'lishi, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazmasligi kerak.

Bugun axborotni tarqatish va qabul qilish qanchalik oson bo'lsa, axborot xurujiga qarshi turish, to'g'ri, haqqoniy va xolisona axborotni farqlay olish shu qadar qiyinlashib bormoqda. Axborot chindan ham kuchli qurol hisoblanadi. Axborot istalgan insonni, istalgan guruh yoki xalqni muayyan oqimga solish va boshqarish xususiyatiga ega bo'ladi.

Har qanday axborot ortida muayyan maqsad yotadi. Axborotni har bir inson, guruh yoki davlat o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qabul qiladi, tahlil qiladi, foydalanadi va tarqatadi. Mavjud axborotni tarqatish yoki tarqatmaslik zamirida ham qandaydir maqsadlar yotadi. Dunyo hamjamiyati e'tiborida bo'lgan har bir voqea-hodisa turli mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar tomonidan turlicha talqin qilinadi va xulosalar chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunida Tezkor-qidiruv faoliyatini axborot bilan ta'minlash va tezkor-qidiruv ishini yuritishning tushunchalari berilgan [4].

Qonunga ko'ra, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tezkor-qidiruvga mo'ljallangan axborot tizimlarini yaratishga va ulardan foydalanishga haqli. Ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini tekshirish va baholash, shuningdek ular asosida, ushbu Qonunning 15-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida tezkor-qidiruv ish yurituv ishleri yuritiladi. Tezkor-qidiruv ish yurituv ishlarining ro'yxati va ularni yuritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi deb ko'rsatib o'tilgan [5].

Respublikamizda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, talonchilik, o'g'irlik, terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlab, ularning oldini olish va fosh etish choralarini ko'rish, jinoyatlarni sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotgan va daxldor shaxslarni aniqlash, topish, surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib

yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish, tezkor-qidiruv ishlarini yuritish, ushbu jarayonda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakat (harakatsizlik)lar haqida axborot to'plash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda [6].

Jinoyatlarning oldini olish va fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligi, sifati va natijalari, jinoyatni sodir etgan, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni, daxldor bo'lgan faktlarni, dalillarni qidirib topish asosan tezkor-qidiruv tadbirlarini zaruriy axborot bilan taminlanganligi bilan belgilanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatida axborot, ushbu faoliyatni axborot bilan ta'minlash yo'nalishlarida huquqshunos olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, tezkor-qidiruv faoliyatida axborotdan foydalanish bo'yicha o'zlarining ta'riflarini va fikrlarini berishgan.

Tezkor axborotdan foydalanishning nazariy asoslari va tarixiy shakllanishi haqida fikr mulohaza bildirishda, birinchi navbatda axborotning mohiyati va ushbu tushunchaga ta'rif bergan huquqshunos olim va mutaxassislarining fikrlarini tahlil qilish lozim. Jumladan,

Huquqshunos olim A.A.Amanov o'zining ilmiy ishlarida axborot tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Axborot – bu tarqatish, uzatish, yetkazish, qayta ishlash kabi amallarni bajara olishi mumkin bo'lgan, ob'ektiv, aniq, yaxlit, to'liq holda jamiyat boshqaruvida hamda inson bilan jamiyatni bog'lab turishda asosiy xizmat qiluvchi xabar, bilim, biror-bir ish holati yoki vaziyati, faoliyati hamda shart-sharoiti to'g'risidagi ma'lumotdir" deb fikr bildirgan.

Olim A.Amanov o'zining ilmiy ishida axborotning tarqatish, uzatish, yetkazish, qayta ishlash kabi amallarni bajara olish mumkinligi, uning ob'ektivligi, aniqligi, to'liqligi hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi barcha sohalarni qamrab olishini hisobga olgan.

MDH davlatlari olimlarining axborot tushunchasiga bergan ta'riflarini o'rganish jarayonida olim Ye.P.Tavokin "axborot" (lotincha *information* -

tushuntirish, sharhlash), insonlarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uzatiladigan biror bir narsa to'g'risidagi ma'lumot" degan ma'noni anglatadi deb fikr bildirgan.

Bizning fikrimizcha. uning "axborot"ga bergan ta'rifi nisbatan tor, deb hisoblash mumkin, chunki u "axborot"ga "...biror-bir narsa to'g'risidagi ma'lumot", deya baho berib o'tib, "narsa, predmet" bilan chegaralanib qolgan. Vaholanki, "axborot" o'zida faqatgina "biron-bir narsa" to'g'risidagi ma'lumotni emas, balki "shaxs, predmet, buyum, hodisa, voqealar" to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'zida mujassam qiladi.

Xuddi shunday, huquqshunos olim S. A. Voytixovich ilmiy ishlarida "axborot", "axborot ta'minoti", "tahliliy ish", "axborot-tahlil faoliyati" tushunchalarini qo'llagan. Uning fikricha, axborot bo'yicha turli xil talqinlar ham mavjud, bu esa ularning noaniq tushunchalariga olib keladi, axborot bilan ishlashni tashkil qilishda chalkashliklarni keltirib chiqaradi va natijada jinoyatlarni aniqlash samaradorligiga ta'sir qiladi deb fikr bildirgan.

Kriminalistika fani namoyondalaridan biri bo'lgan R.S.Belkinning fikricha, kriminalistikada axborot deganda jinoyat hodisasi bilan bog'liq bo'lgan va uni sodir etish usulini tavsiflovchi dalillar yoki ma'lumotlar, uni sodir etgan shaxslar, jinoiy tajovuz ob'ektlari, jinoyat quroli va shunga o'xshash narsalar tushuniladi.

Axborot tushunchasiga to'liqroq izoh beradigan bo'lsak, ushbu so'z lotincha "informatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, biror bir dalil, voqea, hodisani bayon qilish, tushuntirishni bildiradi. Keng ma'noda axborot moddiy dunyoning u yoki bu tomoni va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni bildiradi. Ma'lumotlarga u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilmaydigan, balki, faqat saqlanadigan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror bir narsa to'g'risidagi mavhumlikni kamaytirish uchun foydalanish imkoniyati tug'ilsa, ma'lumotlar axborotga aylanadi.

Bizning fikrimizcha, axborot terminlari va mazmunini tushuntirish uchun asosiy atamalar va tushunchalarga murojaat qilishimiz kerak.

"Axborot" ya'ni "informatsiya" termini lotincha informatio- tushuntirish,

ifodalab berish degan ma'noni bildiradi.

Axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Axborot xavfsizligi – bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir.

Bizning fikrimizcha, axborot keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni quyidagicha ham izohlash mumkin: dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ob'ektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar, shuningdek, ma'lum xos matnda aniq ma'noga ega tushunchalarni ichiga olgan dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob'ektlar haqidagi bilimlar majmui.

Yuqorida bildirilgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda hamda tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib axborotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: axborot – bu manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar yoki xabarlar to'plamidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “axborot” - bu dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ma'lum bir ob'ektlar haqidagi bilim va tushunchalar, o'zida ayrim tushunchalarni mujassam qilgan fakt, voqea, hodisa, dalil, predmet, jarayon kabi ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar, bilimlar majmui, qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan, saqlanishi, qayta ishlanishi va foydalanilishi lozim bo'lgan dalil va ma'lumotlar to'plamidir. Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish natijalarida olingan axborot tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga texnika vositalaridan foydalanish natijasida olingan materiallar qo'shilgan holda taqdim etiladi. Taqdim etiladigan materiallarning hajmi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat sanasi 29.08.2024-y)
2. Bekmurodov N.N. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda axborotning tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborotnomasi. 2022 y №2 88 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/3159827> (murojaat vaqti: 28.09.2023).
4. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabr kunidagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasi/ / <https://lex.uz/ru/docs/2107763/> (murojaat sanasi 30.08.2024y)
5. *Xamdamov A.A. Saitbaev, T.R., S.N.Gordeev, R.Rashidxodjaev.* O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga sharh. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 126 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi 344-son Qonunining 4-moddasi / <https://lex.uz/ru/docs/2107763/> (murojaat sanasi 30.08.2024y)
7. *A.A.Amanov.* Axborot xizmati ko‘rsatishni fuqarolik–huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yu.f.b.f.d.(PhD) dissertatsiya avtoreferati –T.,,2019. – 11.B.
8. *Tavokin Ye.P..* Informatsiya kak nauchnaya kategoriya// Jurnal Sotsiologicheskie issledovaniya. – 2006. – № 11. – 3, s. 621
9. *Voytixovich S.A.* Suщnost informatsionno-analiticheskogo obespecheniya vyyavleniya ekonomicheskix prestupleniy// Nauchnaya statya. M.: Jurnal Voprosy kriminologii, kriminalistiki i sudebnoy ekspertizy 2016 .s-80.
10. *Belkin R. S.* [i dr. –B.] Kriminalistika : uchebник dlya vuzov /. pod red. R. S. Belkina. – 2–e izd., pera–B. i dop. – M. : Norma, 2004. – –S. 381.



## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

11. G'ulomov S.S. va boshqalar axborot tizimlari va texnologiyalari: oliy o'quv yurti talabalari uchun dasrlik. T.: «Sharq», 2000.-88 b.
12. Yuridik Ensiklopediya./yu.f.d.prof. U.Tadjixanovning umumiy tahririda-T: «Sharq», 2001.-65 6.
13. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-sonli Qonuni 3-moddasi. <https://lex.uz/docs/-52268>. (murojaat sanasi 31.08.2024-y)